



PAHLAVON MAHMUD MAQBARASI: TARIXI, ME'MORIY XUSUSIYATLARI VA MADANIY AHAMIYATI

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail: *nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com*

Tel: *+998 (94) 392 42 62*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva shahrida joylashgan Pahlavon Mahmud maqbarasining tarixiy shakllanish jarayoni, me'moriy tuzilishi va madaniy-ma'naviy ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida yodgorlikning dastlabki kichik go'rxona sifatida vujudga kelishi, keyingi davrlarda Xiva xonlari tomonidan kengaytirilib, yirik me'moriy majmua darajasiga yetkazilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada maqbaraning xonaqoh, go'rxona, ziyoratxona, qorixona va ayvon kabi qismlarining me'moriy uyg'unligi, uning moviy gumbazlari, sirlangan koshinlari hamda nafis bezak san'ati Xorazm me'morchilik maktabining yuksak darajasini aks ettirishi asoslab beriladi. Yodgorlikning nafaqat tarixiy obida, balki muqaddas ziyoratgoh sifatidagi o'rni ham alohida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Pahlavon Mahmud, maqbara, Xiva, Ichan qal'a, Xorazm me'morchiligi, me'moriy yodgorlik, xonaqoh, go'rxona, ziyoratxona, koshinkorlik, madaniy meros, ziyoratgoh, me'moriy majmua.

Аннотация: В данной статье научно освещается исторический процесс формирования мавзолея Пахлавона Махмуда, расположенного в городе Хива, его архитектурная структура и культурно-духовное значение. В ходе исследования анализируется превращение первоначального небольшого гробничного сооружения в крупный архитектурный комплекс, расширенный в последующие периоды ханами Хивы. Также в статье обосновывается архитектурная гармония таких частей мавзолея, как хонакох, гробница, зиаратхана, корихона и айван, а также подчеркивается, что его голубые купола, глазурованная керамика и изящное декоративное искусство



отражают высокий уровень хорезмской архитектурной школы. Особое внимание уделяется значению памятника не только как исторического объекта, но и как священного места паломничества.

Ключевые слова: *Пахлавон Махмуд, мавзолей, Хива, Ичан-Кала, хорезмская архитектура, архитектурный памятник, хонакох, гробница, зиаратхана, керамическое искусство, культурное наследие, место паломничества, архитектурный комплекс.*

Abstract: *This article provides a scholarly analysis of the historical formation process, architectural structure, and cultural-spiritual significance of the Mausoleum of Pahlavon Mahmud located in the city of Khiva. The study examines its transformation from a small burial structure into a large architectural complex, which was expanded over time by the Khiva khans. The article also highlights the architectural harmony of the complex, including the khanqah, burial chamber, ziyaratkhana, qorikhona, and ayvan. It emphasizes that the turquoise domes, glazed tiles, and refined decorative art reflect the high level of the Khorezm architectural school. Special attention is given to the monument not only as a historical site but also as a sacred pilgrimage place.*

Keywords: *Pahlavon Mahmud, mausoleum, Khiva, Itchan Kala, Khorezm architecture, architectural monument, khanqah, burial chamber, ziyaratkhana, ceramic decoration, cultural heritage, pilgrimage site, architectural complex.*

O'zbekiston hududi qadim zamonlardan buyon insoniyat tamaddunining muhim o'choqlaridan biri sifatida e'tirof etib kelinadi. Ushbu zaminda yuzaga kelgan shaharlar, bunyod etilgan me'moriy inshootlar hamda shakllangan bunyodkorlik an'analari xalqimizning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy dunyosi va estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan. Turli tarixiy davrlarda barpo etilgan qal'alar, saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va boshqa me'moriy obidalar bugungi kunda nafaqat xalqimizning moddiy madaniy merosi, balki butun insoniyat tamaddunining bebaho boyligi sifatida qadrlanadi. Mazkur yodgorliklar o'tmish jamiyatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganishda muhim tarixiy manba vazifasini bajarishi bilan birga, milliy me'morchilik



san'atining rivojlanish bosqichlarini yoritishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ularni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ta'mirlash hamda xalqaro miqyosda keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarixiy yodgorliklarni asl qiyofasini saqlagan holda kelajak avlodlarga yetkazish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu bois me'moriy obidalarni tarixiy manbalar asosida o'rganish, ularning bunyod etilish tarixi, me'moriy yechimlari, bezak san'ati va madaniy ahamiyatini ilmiy asosda yoritish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning qadimiy vohalari orasida Xorazm o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, yuksak shaharsozlik an'analari va o'ziga xos me'morchilik maktabi bilan alohida ajralib turadi. Xorazm vohasi qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi savdo yo'llari chorrahasida joylashgani bois turli madaniyatlar, ilm-fan va hunarmandchilik rivojlangan yirik markazlardan biri bo'lib kelgan. Bu hududda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar orasida Xiva shahri alohida o'rin egallaydi. Xiva asrlar davomida Xorazmning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida taraqqiy etib, bugungi kunga qadar o'zining tarixiy qiyofasini katta darajada saqlab qolgan kam sonli shaharlardan biri hisoblanadi. Xivaning yuragi hisoblangan Ichan qal'a ochiq osmon ostidagi noyob tarixiy-me'moriy majmua sifatida dunyo miqyosida tan olingan. Uning hududida turli davrlarga oid masjidlar, madrasalar, minoralar, saroylar va maqbaralar o'zaro uyg'un holda joylashgan bo'lib, ular Xorazm me'morchilik maktabining yuksak taraqqiyotini yaqqol namoyon etadi. Mazkur yodgorliklar orasida Pahlavon Mahmud maqbarasi o'zining tarixiy shakllanishi, me'moriy mukammalligi, nafis badiiy bezaklari hamda xalq orasidagi yuksak e'tibori bilan alohida ajralib turadi. Ushbu maqbara nafaqat me'moriy obida, balki xalqning ma'naviy xotirasi, tarixiy o'zligini ifodalovchi muqaddas maskan sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Pahlavon Mahmud XIII–XIV asrlarda yashab ijod etgan mashhur shoir, kurashchi, hunarmand va tasavvuf namoyandalaridan biri sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. U xalq orasida mardlik, halollik, saxovat va komillik timsoli sifatida



e'zozlanadi. Rivoyatlar va tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Pahlavon Mahmud o'z davrining mohir po'stindo'zi bo'lishi bilan bir qatorda, kuch-qudrati, donoligi va yuksak axloqiy fazilatlari bilan ham mashhur bo'lgan. Shu sababli uning vafotidan keyin qabri ustiga bunyod etilgan maqbara qisqa vaqt ichida ziyoratgohga aylangan hamda keyingi asrlarda Xiva hukmdorlari tomonidan kengaytirilib, ulkan me'moriy majmua shakliga keltirilgan.

Bugungi kunda Pahlavon Mahmud maqbarasi Xiva shahrining eng muhim tarixiy va me'moriy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Maqbara o'zining yirik feruza rang gumbazi, nafis sirlangan koshinlari, o'simliksimon va handasaviy naqshlari, o'yma yog'och eshiklari hamda yuksak badiiy bezaklari bilan Xorazm me'morchilik maktabining yuksak namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Inshootning har bir me'moriy qismi o'z davrining qurilish tajribasi, bezak san'ati va muhandislik yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi nafaqat me'moriy yodgorlik, balki Xorazm xonlari sulolasining dafn maskani sifatida ham tarixiy ahamiyat kasb etadi. XIX asrdan boshlab maqbara majmuasi tarkibida Xiva xonlarining qabrlari barpo etilganligi uning siyosiy va ma'naviy mavqeini yanada yuksaltirgan. Shu tariqa maqbara diniy, tarixiy va davlat ramzi sifatidagi vazifalarni o'zida uyg'unlashtirgan noyob yodgorliklardan biriga aylangan.

Mazkur yodgorlikni ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat uning bunyod etilish tarixini yoritish, balki Xorazm me'morchilik maktabining rivojlanish bosqichlarini, o'rta asrlar qurilish usullarini, bezak san'atini va shaharsozlik an'analarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, maqbaraning madaniy ahamiyatini ochib berish orqali xalqimizning tarixiy xotirasini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrash hamda yosh avlodda tarixiy merosga hurmat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xiva shahrining tarixiy qiyofasida alohida o'rin tutuvchi Pahlavon Mahmud maqbarasi nafaqat Xorazm vohasining, balki O'zbekistonning eng ulug'vor me'moriy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Mazkur yodgorlik Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi hamda Buxorodagi Bahouddin Naqshband maqbarasi qatori yurtimizdagi eng muqaddas ziyoratgohlardan biri sifatida e'zozlanib kelinadi. Asrlar



davomida ushbu maqbara o'zbeklar bilan bir qatorda turkman, qoraqalpoq va boshqa xalqlar tomonidan ham tabarruk qadamjo sifatida ziyorat qilinib, xalqning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Pahlavon Mahmud maqbarasi XIV–XX asrlar davomida bosqichma-bosqich shakllangan yirik me'moriy majmua hisoblanadi. Dastlab XIII–XIV asrlarda yashab o'tgan mashhur shoir, mo'ynado'z hunarmand, tengsiz polvon va tasavvuf vakili Pahlavon Mahmud (1247–1326) vafotidan so'ng uning qabri ustiga kichik go'rxona bunyod etilgan[1]. Keyingi asrlarda Xiva xonlari va davlat arboblari tashabbusi bilan mazkur inshoot muntazam ravishda kengaytirilib, yangi binolar bilan boyitilgan hamda bugungi kungacha saqlanib qolgan salobatli me'moriy majmua ko'rinishiga ega bo'lgan. Aynan shu jarayon natijasida maqbara Xiva me'morchiligining eng nafis va hashamatli namunalaridan biriga aylangan. Majmua Xiva shahrining markaziy qismida joylashgan bo'lib, shaharning tarixiy-me'moriy tuzilishida muhim o'rin egallaydi. Mahalliy xalq orasida Pahlavon Mahmud Xiva shahrining ma'naviy homiysi sifatida ulug'lanadi. Xivaliklar orasida maqbara Nuh payg'ambar tomonidan shaharning o'rtasiga tashlangan langar ramzi bilan bog'liq degan rivoyat ham keng tarqalgan. Shu bois maqbaraning bosh peshtog'i o'ng qanotidagi koshin bezaklarida kema tasviri ishlangan bo'lib, u xalq og'zaki an'analari va me'moriy ramziylikning o'zaro uyg'unligini namoyon etadi.

Maqbaraning bugungi qiyofasini shakllantirishda bir qator mohir me'mor va ustalar ishtirok etgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, majmuaning bosh ustasi xazaraspik Odina Muhammad o'g'li bo'lgan bo'lsa, qurilish ishlariga Muhammad Yusuf mehtar rahbarlik qilgan. Inshootning xonaqohi, qabrxonalari va boshqa ichki qismlari nafis sirlangan koshinlar bilan bezatilgan[2]. Ayniqsa, gumbaz ostidagi bezaklar o'zining rang-barangligi, handasaviy va o'simliksimon naqshlarining betakrorligi bilan ajralib turadi. Koshin lavhalarining deyarli har biri alohida bezak yechimiga ega bo'lib, bir naqshning ikkinchisini aynan takrorlamasligi Xorazm koshinkorlik san'atining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Maqbaraning ichki bezaklari san'atshunos olimlar tomonidan ham yuksak baholangan. Jumladan, san'atshunos I. I. Notkin maqbara bezaklarini tahlil qilar



ekan, undagi badiiy yechim va hashamatni Amir Temur davridan keyingi me'morchilik san'atining eng yuksak namunalaridan biri sifatida e'tirof etadi. Bu baho Pahlavon Mahmud maqbarasining nafaqat Xiva, balki butun Markaziy Osiyo me'morchiligi tarixida tutgan o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

Pahlavon Mahmud maqbarasi bugungi ko'rinishiga kelguniga qadar bir necha qurilish bosqichlarini bosib o'tgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, dastlab 1664-yilda Pahlavon Mahmud qabri ustida xom g'ishtdan kichik gumbazli maqbara bunyod etilgan. Ushbu inshoot sodda tuzilishga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan yemirilgan va deyarli butunlay vayron bo'lgan. Uning ayrim qoldiqlari keyinchalik bunyod etilgan binolar tarkibida saqlanib qolgan. XIX asr boshlarida Xiva xonligida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari davomida eski poydevor saqlab qolingan holda pishiq g'ishtdan yangi maqbara qurilishi boshlangan. Qurilish ishlari Muhammad Rahimxon hukmronligi (1806-1825) davrida, 1810-yilda boshlanib, Olloqulixon (1825-1842) davrida, 1835-yilda yakunlangan[3]. Natijada maqbara avvalgisiga nisbatan ancha salobatli va murakkab me'moriy yechimga ega majmuaga aylantirilgan. Uning tarkibiga moviy gumbazlar bilan yopilgan ziyoratxona, go'rxona va ularga tutash boshqa inshootlar kiritilgan. Dastlab maqbaraga orqa tomondan ham kirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu yo'lak orqali juma namozidan so'ng ziyoratchilar Pahlavon Mahmud qabrini ziyorat qilganlar. Keyinchalik mazkur kirish yo'li berkitilgan, shuningdek, ziyoratxona bilan go'rxonani bog'lovchi eshik ham yopilgan. Maqbaradagi tarixiy yog'och eshiklar o'zining yuksak badiiy ishlanishi bilan ajralib turadi. Ular nozik o'ymakorlik, bo'rtma bezaklar hamda fil suyagidan ishlangan bezak qismlari bilan sayqallangan bo'lib, Xorazm yog'och o'ymakorligi san'atining yetuk namunalaridan biri hisoblanadi. Yangi maqbara qurilishi bilan bir vaqtda unga ulkan xonaqoh ham qo'shilgan. Xonaqohning chap devoridan Pahlavon Mahmud maqbarasiga o'tiladigan eshik ochilgan bo'lib, keyinchalik aynan shu xonaqoh Xiva xonlari dafn etilgan xilxona vazifasini bajara boshlagan. Shu tariqa Pahlavon Mahmud maqbarasi diniy ziyorat maskani bo'lish bilan birga Xiva hukmdorlari dafn etiladigan muqaddas majmuaga ham aylangan.



Majmuaning shakllanishida Shohniyoxxon davri ham muhim o‘rin tutadi. Uning buyrug‘i bilan XVIII asr boshlarida nafis o‘ymakor yog‘och darvoza tayyorlangan. Darvoza yuzasiga Qur‘oni karim oyatlari va tarixni ifodalovchi bitiklar o‘yib yozilgan. Shuningdek, unda Shohniyoxxon tomonidan maqbara hududida quduq qazdirilgani hamda keyinchalik uning o‘zi ham shu yerga dafn etilgani haqida ma‘lumotlar uchraydi. Mazkur darvoza xorazmona bezak usullari, turunj, madohil va o‘simliksimon naqshlarning uyg‘unligi bilan alohida badiiy qimmat kasb etadi. XX asr boshlarida Asfandiyorxon(1910-1918) davrida majmua yana kengaytirilib, hovlining g‘arbiy tomonida ikki qavatli qorixona, sharqiy tomonida esa yozgi ayvonli masjid bunyod etilgan[4]. Shuningdek, majmua tarkibiga qishki masjid, yozgi masjid, bir necha gumbazli kichik maqbaralar ham qo‘shilgan. Bu inshootlar sharqiy gumbazli yo‘lak orqali asosiy majmua bilan tutashtirilgan bo‘lib, yagona me‘moriy yaxlitlikni hosil qiladi. Yodgorlik majmuasining umumiy maydoni taxminan 50×30 metrni tashkil etadi. Hovliga kirishda baland peshtoq va ulkan ayvon ziyoratchilar e‘tiborini tortadi. Inshootning tashqi qismi sirlangan yashil, moviy, ko‘k va oq rangli koshinlar bilan bezatilgan bo‘lib, ular Xorazm mayolika san‘atining eng mukammal namunalaridan hisoblanadi. Xonaqoh markazida Xiva xoni Muhammad Rahimxon dafn etilgan besh qirrali supa joylashgan. U nafis naqshlar bilan ishlangan mis panjara orqali ajratilgan. Majmuaning shimoli-g‘arbiy qismida esa Abulg‘ozixon va Anushaxonning sirlangan koshinlar bilan bezatilgan qabr toshlari saqlanib qolgan bo‘lib, ular yodgorlikning tarixiy va badiiy qimmatini yanada oshiradi. Shunday qilib, Pahlavon Mahmud maqbarasi bir necha asr davomida shakllangan, turli hukmdorlar davrida kengaytirilib va boyitilib borilgan noyob me‘moriy majmua hisoblanadi[5]. Uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, me‘moriy yechimlari hamda yuksak bezak san‘ati Xorazm me‘morchilik maktabining taraqqiyotini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Pahlavon Mahmud maqbarasi Xiva shahrining eng muhim tarixiy-me‘moriy yodgorliklaridan biri bo‘lib, u uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib, bugungi kunda yirik me‘moriy majmua ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Dastlab kichik go‘rxona sifatida bunyod etilgan ushbu inshoot keyinchalik



Xiva xonlari davrida bosqichma-bosqich kengaytirilib, murakkab va salobatli ansamblga aylantirilgan. Maqbaraning me'moriy tuzilishida xonaqoh, go'rxona, ziyoratxona, qorixona va ayvon kabi qismlar o'zaro uyg'unlashgan holda joylashgan bo'lib, ular yagona me'moriy yaxlitlikni tashkil etadi. Uning moviy gumbazlari, sirlangan koshinlari, nafis naqshlari va o'ymakor bezaklari Xorazm me'morchilik maktabining yuksak darajada rivojlanganini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, undagi yozuvlar va badiiy bezaklar Pahlavon Mahmud ruboiylari hamda diniy matnlar bilan boyitilgani uning ma'naviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, maqbara nafaqat me'moriy yodgorlik, balki muqaddas ziyoratgoh sifatida ham xalq orasida yuksak ehtiromga ega bo'lgan maskan hisoblanadi. U asrlar davomida turli davr hukmdorlari va tarixiy shaxslar dafn etilgan joy sifatida ham muhim tarixiy vazifani bajargan. Pahlavon Mahmud maqbarasi o'zining tarixiy shakllanishi, me'moriy mukammalligi va madaniy-ma'naviy qimmati bilan nafaqat Xorazm vohasining, balki butun O'zbekistonning betakror madaniy meros yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Uni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va asrab-avaylash kelajak avlodlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Жабборов И, Ртбеладзе Э, Мамбетуллаев М Хива минг гумбаз шахри – Хоразм “Шарқ” нашриёти, –1997, 307 б.
2. Rahmanova Y Xiva shahrining me'moriy obidalari (bitiruv malakaviy ish) – Urganch, 2018. –92 b.
3. <https://uzbekistan.travel/uz/o/pahlavon-mahmud-maqbarasi/>
4. Vaxitov M, Mirzayev Sh. Me'morchilik. – Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010. – 366 b.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pahlavon_Mahmud_majmuasi